

**III APTHOMA**

Andijon viloyati Asaka tumanida joylashgan «VALLEY TRADE TRUST» M.CH.J (keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb yuritiladigan) nomidan nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari Isakov.O.Y bir tarafdan va Izboskan tumani Poytug' shahar Shifokorlar ko'chasida joylashgan Izboskan tuman Tibbiyot birlashmasi (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladigan) nomidan nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari A.Abdujaborov ikkinchi tarafdan quyidagilar haqida tuzdilar:

**I.Shartnomaning mavzusi**

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Sotuvchi shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan tovarlarni Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish majburiyatini, Sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ular uchun shartnomaga muvofiq haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Mazkur shartnoma bo'yicha topshiriladigan tovarlar ro'yxati:(so'mda)

T/r	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miq-dori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Ko'rpa	Dona	235	128.000.00 0	30.080.000.00
2	Matras	Dona	235	128.500.00 0	30.197.500.00
3	Yostiq	Dona	235	43.000.00	10.105.000.00
4	Pastel	Dona	235	119.700.00 0	28.129.500.00
	<b>Jami</b>				<b>98.512.000.00</b>

Shartnomaning umumiy summasi: 98.512.000.00 so'm (To'qson sakkiz million besh yuz o'n ikki ming so'm)

**II. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari**

2.1. Sotuvchining huquqlari:

- a) tovarlar haqini shartnoma shartlariga muvofiq to'lanishini talab qilish;
- b) Sotib oluvchi tovarlar haqini o'z vaqtida to'lama, tovarlar haqini va shartnomada ko'rsatilgan miqdorda peniya to'lashni talab qilish;
- v) Sotib oluvchidan tovarlarni shartnoma shartlariga muvofiq qabul qilib olishni talab qilish;

2.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- a) shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan tovarlarni va ularga mansub ashyolarni, shuningdek, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan ashyoga aloqador xujjatlar (texnik pasporti, sifat sertifikat, foydalanish bo'yicha yo'riqnom va hokozolar)ni Sotib oluvchiga topshirish;



b) tovarlarni sotib oluvchiga uchunchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirish;

2.3. Sotib oluvchining huquqlari:

a) ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda tovarlarni va ashyoga aloqador xujjatlar (texnik pasporti, sifat sertifikat, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma va hokozolar)ni sotuvchilardan talab qilish;

b) Sotuvchi tovarlarni o'z vaqtida topshirmasa, tovarlarni topshirish va shartnomada ko'rsatilgan miqdorda peniya to'lashni talab qilish;

v) Sotuvchi shartnomada belgilangan miqdordan kam tovar topshirgan bo'lsa, yo tovarning yetishmayotgan miqdorini topshirish talab qilish, yo topshirilgan tovardan va uning haqining to'lashdan bosh tortish, tovarlarning haqi to'langan bo'lsa, to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilish;

g) Sotuvchi shartnomada nazarda tutilgan tovarlarni shartnomaga mos kelmaydigan assortimentda topshirgan taqdirda, ularni qabul qilishdan va haqini to'lashdan bosh tortish, haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilish.

2.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

a) tovarning baxosini ushbu shartnomaga muvofiq to'lash, to'lovni amalga oshirish zarur bo'lgan xarakatlarni o'z hisobidan bajarish;

b) Sotuvchi tomonidan topshirilgan tovarni qabul qilib olish, tovarni almashtirib berishni talab qilish yoki oldi-sotdi shartnomasini bajarishni rad etishga haqli bo'lgan hollardan tashqari;

v) tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovar kelib tushgani aniqlangan taqdirda, Sotuvchini zudlik bilan ogoxlantirish;

### III. Shartnomaning bahosi, hisob kitob qilish tartibi

3.1. Shartnomaning umumiy bahosi **98.512.000.00 so'm (To'qson sakkiz million besh yuz o'n ikki ming so'm)** ni tashkil qiladi.

3.2. Shartnoma imzolangandan so'ng, tegishli G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tib, mablag' 5 bank ish kunida Sotib oluvchi yetkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasini 30 % izini oldindan avans tariqasida Sotuvchining xisob raqamiga o'tkazib beradi.

Qolgan 70 % izini Sotuvchi tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlar hisob varaqa-fakturalari asosida mablag' 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

3.3. Sotib oluvchi tomonidan 30 % to'lov oldindan amalga oshirilgandan so'ng Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan tovarlar Sotib oluvchiga 10 bank ish kuni davomida topshirilishi shart.

3.4. Tovar uchun hisob-kitoblar pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### IV. Shartnomaning bajarilishi

4.1 Shartnoma mazkur shartnoma shartlari va qonun xujjatlari talablariga muvofiq bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.



4.3. Taraflar o'rtasidagi mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

#### **V. Taraflarning javobgarligi**

5.1. Tovar yetkazib berish kechiktirilgan har bir kun uchun Sotuvchi yetkazib berilmagan tovar qiymatining 0.5 foizi miqdorida Sotib oluvchiga peniya to'laydi, biroq peniyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovar qiymatining 50 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.2. Tovar qiymatini to'lashni kechiktirgan har bir kun uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga uning 0.4 foizi miqdorida peniya to'laydi, biroq peniyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.3. agar etkazib berilgan tovarlar, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar namunalariga (etalonlarga) qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa Sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish xamda ularning xaqqini to'lashni rad etib etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20% miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar xaqqi to'lab qo'yilgan bo'lsa to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga xaqlidir. Sifati assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan aktseptissiz tartibda undirib olinadi.

Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning sifati assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin 10 kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan xolda taqdim etilgan xollarda jarimani undirish belgikangan tartibda amalga oshiriladi.

5.4. Peniya va jarimalarni to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

#### **VI. Nizolarni hal etish tartibi**

6.1. Mazkur shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, taraflar ularni sudgacha hal etish yuzasidan kelishilgan chora-tadbirlar ko'radilar.

6.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqan nizolar o'z aro hal qilinmagan taqdirda qonunchilikda o'rnatilgan tartibda sud tartibida hal qilinadi.

#### **VII. Fors-major va javobgarlikdan ozod etish**

7.1. Taraflardan biri shartnomani fors-major holatlari, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (pandemiya, epidemiya, epizotiya, zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiy ofatlar) yoki shartnomani bajarish muddati mobaynida yangi qonun hujjati qabul qilinganligi tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

7.2. Ushbu shartnomani shartlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanishi va tugashi to'g'risida tomonlar zudlik bilan bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.



### VIII. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shakilda sodir etilishi va taraflarning bunga zarur darajada vakolatli vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Shartnoma taraflar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.


8.3. Shartnoma ikki nusxada tuzulgan bo'lib, taraflarning har birida bir nusxadan saqlanadi.

### IX. Taraflarning manzili va bank rekvizitlari

«TAMINOTCHI»

«XARIDOR»

Nomi: «VALLEY TRADE TRUST» M.CH.J Manzili: Andijon Viloyati Asaka tumani Ozod MFY ko'cha 404-uy Tel: _____ X-r: 20208000705506966001 Bank nomi: QISHLOQ QURILISH Bank ATB Xp'jaobod filiali MFO: 01037 STIR: 309394342 OKONX: Raxbar: _____ Isakov.O.Y	Nomi: Izboskan tuman tibbiyot birlashmasi Manzili: Poytug sh shifokorlar 1 uy Tel : 743122153 ShXV: 100022860032147073101054001 ShXV*: 400322860032147073102054002 STIR: 200271386. XXTUT: 91511 O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligi, Yagona g'azna hisob varag'i G'azna x/r: 2340 2000 3001 0000 1010 YB BBXKKM Toshkent shaxar MFO: 00014, STIR: 201122919 Raxbar: _____ A. Abdujabborov
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	AXRORBEG ABDUJABBAROV ABDUGAPPAROVICH
	Imzolangan sana	10 OKT 2022 09:26
	Hujjat kodi	OU30020510
	Hulosa kodi	OR8056815512



YURIDIK AHAMIYATGA EGA XUJJATLARNING QONUN  
XUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ OU30020510

1. Loyihaning turi: Fuqarolik shartnoma.
2. Loyihaning nomi. haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi.
3. Hujjat loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: " Izboskan tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 5 oktyabr kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
boshlig'i



M.Mavlonov

08.10.2022